



ENDOKRIN KASALLIKLARNING SHAXS PSIXIKASIGA TA'SIRI.

Latipova Umida Yusufboyevna

Urganch davlat universiteti

Pedagogika va psixologiya kafedrasi dotsenti (PhD)

Annotasiya: Ushbu maqolada endokrin kasalliklar sirasiga kiruvchi bo'qoq xastaliging shaxsning fiziologik va psixologik jarayonlariga bevosita ta'siri uning paydo bo'lish sabablari va oqibatlari bo'yicha ilmiy nazariy ma'lumotlar tahlil qilingan.

Аннотация: В данной статье анализируются научные теоретические данные о непосредственном влиянии зоба на физиологические и психологические процессы личности, причинах и последствиях его возникновения, относящиеся к числу эндокринных заболеваний.

Abstract: This article analyzes scientific theoretical data on the direct influence of goiter on the physiological and psychological processes of personality, the causes and consequences of its occurrence, related to the number of endocrine diseases.

Kalit so'zlar: Endokrin kasallik, buqoq, asab tizimi, depressiya, kognitiv jarayonlar, gormon, endemik va sporadik.

Ключевые слова: эндокринное заболевание, зоб, нервная система, депрессия, когнитивные процессы, гормональные, эндемические и спорадические.

Key words: endocrine disease, goiter, nervous system, depression, cognitive processes, hormonal, endemic and sporadic

Mamlakatimizda aholiga sifatli darajada endokrinologik yordam ko'rsatib kelinmoqda. Respublika endokrinologiya ixtisoslashtirilgan ilmiy-amaliy tibbiyot markazida qandli diabet va boshqa og'ir kasalliklar oqibatidagi qalqonsimon bez, buyrak faoliyatidagi yetishmovchilik, gipofiz kasalliklari samarali tarzda davolanmoqda.

O'tgan 20 - asrda qalqonsimon bez kasalliklarini tadqiq qilgan olimlardan S.A.Masumovning bergan ma'lumotlariga qaraganda O'zbekistonda bo'qoqning diffuz shakllari 63 foizni, tugunli shakli — 20 foizni va aralash shakli — 7 foizni tashkil etadi. Endemik bo'qoqning tugunli shakllari 3—5 foiz xollarda rakka aylanadi [1].

Ko'p yillik kurash olib borilayotganiga qaramasdan, hanuzgacha O'zbekistonda bu muammo to'liq hal etilmagan. Ushbu masala yuzasidan AOKAda o'tkazilgan brifingda Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi xizmati boshlig'i o'rinbosari Nurmat Otabekov ma'lum qildi [4].

Dastavval biz bu endokrin kasalliklardan biri buqoq xastaligining kelib chiqish sabablari unga ta'sir etuvchi omillarni aniqlab olishimiz zarur.

- Xo'sh, ushbu xastalikning paydo bo'lishiga qanday omillar sabab bo'ladi?
- Uning salomatlikka xavfi nimada?



Shu va shu kabi savollar bilan Sog'liqni saqlash vazirligi matbuot xizmati xodimlari tomonidan Respublika ixtisoslashtirilgan endokrinologiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi direktori vazifasini bajaruvchi Feruza Xaydarovaga murojaat qilinadi.

— Buqoq qanday xastalik?

— Inson bo'ynining old qismida shaklan kapalakni yodga soluvchi qalqonsimon bez joylashgan bo'lib, ushbu tana a'zosi asab tizimi faoliyati, ovqat hazm qilish, suyak to'qimalari va moddalar almashinuvida muhim o'rin tutadi.

Qalqonsimon bez o'zidan 3 xil gormon ajratib, ular tananing normal o'sishi, yetilishi, rivojlanishini ta'minlaydi, oshqozon-ichak kabi organlarning bir me'yorda ishlashiga ko'mak beradi. Agar ularning qaysi birini sintez qilish jarayonida muammolar kuzatilsa, bu o'z-o'zidan inson tanasida jiddiy kasalliklarga yo'l ochadi.

Buqoq ushbu bezning kattalashishi hisoblanib, (normal holatda qalqonsimon bezning vazni 20-30 gramm) kasallik asosan yod yetishmasligi sababli yuzaga keladi. Yod tanqisligiga esa insonning turmush-tarzi, ovqatlanishi, stress, ekologik vaziyat va yana bir qancha omillar sabab bo'lishi mumkin.

Inson tanasida yod tanqisligi kuzatilganda, qalqonsimon bez hujayralarga kam miqdorda yod yuboradi. Buning oqibatida esa gormonlar sintezi kamayadi va organizm bu jarayonni bir maromga keltirish uchun bosh miya gipofizi orqali ta'sir o'tkazadi. Natijada qalqonsimon bez kattalashib, buqoq kasalligi rivojlanadi [2].

Aholini yodlangan tuz bilan ta'minlash qalqonsimon bez kasalliklarining oldini olishga yordam bermoqda. Shunga qaramay, yod yetishmovchiligi oqibatlarini davolash endokrinologiyaning dolzarb muammolaridan biri bo'lib qolmoqda. Bunday muammoga duch kelmaslik uchun, birinchidan, qalqonsimon bez ishi buzilishi belgilarini yaxshi bilish, ikkinchidan, bunday kasallikning xavfi nimadan iborat ekanligidan voqif bo'lish va uchinchidan, bunday kasallik yaqinlashishiga yo'l qo'ymaslik zarur [3].

Biz tadqiqotimizda qalqonsimon bez faoliyatining buzilishini inson tanasidagi boshqa organlarga salbiy ta'sirini, shaxsning kognitiv jarayonlaridagi o'zgarishlarni, bundan tashqari shaxsning psixosomiy holatlari bilan o'zaro aloqadorligini ko'rib chiqamiz.

Surunkali yod yetishmasligi va qalqonsimon bez faoliyatining buzilishi zehning susayishi, depressiya, teri qurishi, soch to'kilishi, qabziyat, ich ketishlar, bepustlik, jinsiy faoliyatning susayishi, suyak rivojlanishining o'zgarishi, past bo'ylik va osteporoz, gipertoniya va ateroskleroz kabi xastaliklarga sabab bo'ladi.

— Buqoq kasalligining qanday turlari mavjud?

— Tibbiyotda buqoqning asosan, endemik va sporadik turlari mavjud. Jumladan, endemik buqoq qalqonsimon bezning jadal kattalashishi bilan xarakterlanib, ushbu xastalik ko'pincha atrof- muhitda yod yetishmasligi, okean va dengizlardan uzoqda joylashgan (O'zbekiston shular jumlasidan) hududlarda ko'p uchraydi. Endemik buqoqning diffuz, tugunli va aralash turlari mavjud.

— Kasallikning asosiy belgilari qanday?



— Buqoqning ilk bosqichlarida uning eng kichik belgilari ham sezilmaydi. Biroq keyinchalik bo'yinning oldi qismi bo'rtib chiqadi. Natijada kattalashgan qalqonsimon bez asab va qon tomirlarini ezib qo'yadi. Bu orqali bemorda nafas qisilishi, ovozning birdaniga o'zgarib qolishi va xirillashi, bo'g'ilishlar, ko'p terlash, yutinishdagi qiyinchiliklar, bosh aylanishi kabi salbiy holatlar kuzatiladi.

Shu bilan birga, asab tizimida buzilishlar sodir bo'ladi, kayfiyat tez-tez o'zgaradi, tanadagi barcha jarayonlar sekinlashadi, ayniqsa, oshqozon-ichak faoliyati buziladi.

Afsuski, ko'pchilik insonlar o'zlarida bu kasallik rivojlanayotganiga jiddiy e'tibor bermaydi. Biroq mutaxassis sifatida shuni ayta olamanki, bu xastalikka beparvo bo'lish yaxshi oqibatlariga olib kelmaydi.

Olib borilgan tadqiqot natijalariga ko'ra insonlarda qalqonsimon bez faoliyatining buzilishi bilan xastalangan bemorlarni davolashda tibbiy muolajalar bilan bir qatorda ilmiy psixologik, psixoterapevtik muolajalar birgalikda olib borilishi ularda ushbu xastalikni tezroq va samaraliroq tuzalish imkoniyati mavjud.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Масумов С. Л. Тиреотоксик буқоқ. Тошкент, 1956.
2. Правда Востока газетаси 2021 9 августъ сони.
3. Солиқ ва божхона хабарлари газетаси 2013 йил №23 сони.
4. Uz Report 05 июля 2022 года Информацион агентлиги